“O‘zmilliybank” AJ Namangan viloyat Bosh boshqarmasida Chust BXOda o‘tkazilgan

DAVRA SUXBATI

2026 yil “ 17 ” iyun Namangan shahri

Qatnashdilar: “O‘zmilliybank” AJ Namangan viloyat Chust **BXO** мудири ва ходимлари (давра сухбатида 8 та ходим иштирок этди).

KUN TARTIBI

1. Korrupsiyaga qarshi kurash, uni oldini olish va korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish to‘g‘risida.
2. “O‘zmilliybank” AJ ning xodimlarining xuquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlar Rejasi” da belgilangan talablar va ularni ijrosi bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar.

KUN TARTIBIDAGI MASALALAR:

Davra suxbatini BXO mudiri J.Madbaev o‘z so‘zi bilan ochib, “O‘zmilliybank” AJ tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘rib chiqilgan masalalar va topshiriqlar, bank xodimlarining xuquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar xaqida nutq so‘zladi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan Boshqarma Komplyns nazorat va korrupsiyaga qarshi kurash buyicha bosh mutaxassisi Z.Qirg‘izovga so‘z berib, Z.Qirg‘izov so‘zga chiqib bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida xalq ravnaqi va farovonligi yo‘lida amalga oshirilayotgan muhim va dolzarb masalalar qatorida Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishi ham o‘ta muhim ahamiyatni kasb etuvchi masalalardan biri bo‘lib, unga qarshi kurashish va oldini olish borasida ko‘plab chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Xususan, mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish borasida tizimli choralar ko‘rilmoqda.

Bu borada to‘g‘ri yo‘lni tanlab olish hamda qonunga asoslangan siyosatni amalga oshirish, shuningdek, dastlabki poydevorni mustahkam shakllanishini ta’minlash maqsadida, 2016 yil 24 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, 2021 yil 13 dekabrda Senat tomonidan ma’qullandganligi, ushbu qonun talablaridan kelib chiqib, uning samarali ijro etilishini ta’minlash maqsadida, Hukumatning Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida bir qator qonun osti hujjatlari, ya’ni Farmon va Qarorlari, shuningdek, tegishli me’yoriy hujjatlar qabul qilinib, ijroga qaratildi.

Ta’kidlash joizki, mazkur qonunda quyidagi tushunchalarga normativ ta’rif berildi:

korrupsiya - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi yoki sharoit yaratib berishi;

manfaatlar to‘qnashuvi - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

Shu o‘rinda, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni aytib o‘tish maqsadli deb bilaman.

Xususan, Davlat organlarining xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymaslik kerak.

Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, davlat organlarining xodimlari o'zining bevosita rahbarini darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar bu to'qnashuvni oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishi shart.

Davlat organlarining maxsus bo'linmalari yoki odob komissiyasilari manfaatlar to'qnashuvini hal etish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi.

Davlat organlarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish yoki uni bartaraf etish talablari buzilishiga yo'l qo'ygan xodimlar, shuningdek, ularning rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi (Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Qonunning 21-moddasi).

Davlat organlari va tashkilotlari uchun taqdim etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatida keltirilgan bir qator atama va tushunchalarni ko'nikma xosil qilishingiz uchun ko'rib chiqamiz.

aloqador shaxslar - Tashkilot xodimi bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno;

davlat organlari va muassasalari – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari (jumladan, vazirliklar, xizmatlar, agentlik, markazlar va b. idoralar) va ularning tarkibiy bo'linmalari, shuningdek, davlat tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilinadigan yuridik shaxslar;

korrupsiyaviy xavf-xatar – Tashkilot xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan Tashkilot nomidan yoki ularning manfaatlari yo'lida korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish xavfi;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan, pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan foydalanish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – korrupsiyaviy harakatlarning, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va Tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, Tashkilot xodimlari tomonidan o'z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar;

kronizm - (favoritizmning do'stona aloqalarga asoslangan ko'rinishi) – do'stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish maqsadida hokimiyat va/yoki obro'sidan foydalanish;

mansabdor shaxs - doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs.

nepotizm - (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik; favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko'rinishi) - o'zining yaqin qarindoshlari yoki do'stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta'sir o'tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do'stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, Tashkilot manfaatlari zarariga, yaqin qarindoshlari va do'stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar;

rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar -belgilangan tartib-taomillar yoki harakatlarni sodir etish bilan bog'liq standart tartiblar amalga oshirilishini ta'minlash yoki tezlashtirish maqsadida tegishli qonunchilik va normativ me'yorlar hamda qoidalarda ko'zda tutilmagan noqonuniy ravishda taqdim etiladigan pul mablag'lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar hamda boshqa moddiy va nomoddiy foyda;

favoritizm – Tashkilot xodimi boshqa shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi, Tashkilotda kadrlarni tanlash va joylashtirish, lavozimini ko'tarish, mukofot puli berish va davlat mukofotlariga tavsiya etish, ta'til berish yoki sihatgohlar va xorijiy safarlarga yuborish, murojaatlar, shuningdek ish va navbatchilik

jadvallarini ko'rib chiqishda ketma-ketlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq vaziyatlarda tartiblarga rioya qilmaslik.

xayriya (xayriya yordami) – yuridik va jismoniy shaxslar (xayriya qiluvchilar)ning tashkilot uchun bepul yoki imtiyozlar asosida moddiy va/yoki nomoddiy boyliklar, xususan, pul mablag'lari shaklidagi boyliklarni topshirish, ular uchun ma'lum ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va xayriya maqsadlaridagi boshqa qo'llab-quvvatlashlarni taqdim etishda namoyon bo'ladigan ixtiyoriy beg'araz yordami;

homiylik (homiylik yordami) – yuridik va jismoniy shaxslar (homiylar) tomonidan Tashkilot (homiylik qilinayotgan muassasalar)ga ular uchun ishlar bajarib berish, xizmatlar ko'rsatish va hayriya maqsadlarida boshqa turdagi yordamlarni ko'rsatish, mol-mulk, jumladan pul mablag'lari taqdim etish bilan ifodalanadigan yordami hisoblanib, ularning natijasida Tashkilot muassasalarida homiy oldida o'zaro majburiyatlar yuzaga kelishi to'g'risida tushuncha berib o'tdi.

Shuningdek xar bir bank xodimiga "Bank xodimining kasb odob-axloqi", ichki mexnat tartibi va o'z xizmat vazifalariga jiddiy yondashishi, sodir etilgan jinoyat jazosiz qolmasligi, shu kabi qonunbuzarliklar, hamda xato kamchiliklarni kelib chiqishining sabablari, ularni bartaraf etish va kelgusida kamchiliklarga yo'l qo'ymasliklari, shaxsiy eletron manzillariga Bosh ofisdan kelayotgan Korrupsiya buyicha o'quv mashg'ulot darsliklari bilan tanishib borishlari to'g'risida ta'kidlab o'tildi.

Davra suxbati ochiq tarzda o'tkazilib, yig'ilish qatnashchilari Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarni berib, yetarlicha javoblar olishdi.

Majlis so'ngida kun tartibidagi masalalar yuzasidan

DAVRA SUXBATIDAN KELIB ChIQIB:

1. Чуст BXOda o'tkazilgan davra suxbatida Korrupsiyaga qarshi kurash, uni oldini olish va korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish to'g'risida ma'ruzalar ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin. BXO xodimlarni nojo'ya xatti-xarakat sodir qilishlarini oldini olish borasida bo'lim boshliqlari va sho'ba mudirlari tomonidan ular bilan yuqoridagi me'yoriy xujjatlar asosida samarali ishlar olib borilsin va ularning ish faoliyati uzluksiz nazorat qilinsin.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan majburiyatlar, manfaatlar to'qnashuvi xolatlari va talablarni buzilishi aniqlangan xolatlarda raxbar va xodimlarga nisbatan jiddiy jazo choralari ko'rilishi haqida ogohlantirilsin.
3. Bosh ofis tomonidan yuborilayotgan buyrug' va ko'rsatmalari ijrosi o'z vaqtida ta'minlansin.

Bayonlashtiruvchi: **J.Madbaev.**

Т.р.	Ф.И.Ш.	Лавозими	Имзо
1	Мадбаев Жасур Абдумаликович	Чуст БХО мудири	
2	Рахимов Шерзод Шокирович	Бизнес мижозларга хизмат кўрсатиш шўъбаси бош мутахассиси	
3	Каримов Дильшод Ортикович	Бизнес мижозларга хизмат кўрсатиш шўъбаси етакчи мутахассиси	
4	Хабибжонов Аскар Хамиджонович	Чакана хизмат кўрсатиш шўъбаси бош мутахассиси	
5	Зайлиев Акмалжон Ахмадалиевич	Чакана хизмат кўрсатиш шўъбаси етакчи мутахассиси	
6	Парпиева Дильфуза Салимовна	Валюта-айрибошлаш ва касса амалётлари шўъбаси кассири	
7	Эшонкулова Рислигой Каххоржоновна	Валюта-айрибошлаш ва касса амалётлари шўъбаси кассири	
8	Джафаров Маруфали Мамадалиевич	Кредитларни дастлабки ундириш бўлими бош мутахассиси	